

QORAQALPOQ XALQINING URF-ODATLARI TEATRLASHTIRILGAN TOMOSHALARDA

Mexriban Dosniyazova

O'zDSMI Nukus filiali

“Estrada aktyorligi” yo'nalishi 3-kurs studenti

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks etishi yoritilgan. To'y va mavsumiy marosimlarning sahnada ifodalanishi, xalq qo'shiqlari va raqslarining qo'llanishi hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq xalqi, urf-odatlar, an'analar, teatrlashtirish, tomosha, milliy qadriyatlar, raqs, dramatic ko'rinish, Navro'z, to'y marosimlar.

Qoraqalpoq xalqi qadimdan o'zining boy tarixi, an'anaviy turmush tarzi, marosimlari va urf-odatlarini bilan ajralib turadi. Har bir xalqning milliy madaniyatida urf-odatlar uning ma'naviy qiyofasini, dunyoqarashini, turmush tarzini ifodalaydi. Qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini ham ko'p asrlar davomida shakllangan, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Ularning aksariyati xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlari, raqslari va dramatic ko'rinishlarida mujassam bo'lib kelmoqda. [1]

Bugungi kunda teatr sa'nati, ayniqsa, teatrlashtirilgan tomoshalar xalqning urf-odatlarini saqlash, ularni yangicha badiiy talqin berish, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Shu sababli qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish masalasi va sa'nat sohasida dolzarb mavzu hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalqining marosimlari hayotning turli bosqichlari bilan bog'liq bo'lib, ular orasida to'y marosimlari, bolalar marosimlari, mehnat urf-odatlarini, diniy va mavsumiy bayramlar muhim o'rin egallaydi. Masalan “Kelin salom”, “Sovchi kelishi”, “Sunnat to'y” kabi odatlar xalq hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, xalqning tabiat bilan bog'liq urf-odatlarini ham mavjud. “Navro'z” bayramida yangilanish, tabiat uyg'onishi, mehnat mavsumining boshlanishi teatrlashtirilgan sahnalarda o'ziga xos tarzda gavdalanadi. [2]

Teatrlashtirilgan tomoshalarda qoraqalpoq xalqning turmush tarzidan olingan ko'plab ko'rinishlar sahnaga olib chiqiladi. Masalan, to'y marosimlari – kuyov va kelin obrazlari, sovchilar suhbatlari, kuyovning sinovdan o'tishi, kelin salom kabi an'anaviy ko'rinishlar tomoshabinlar qalbiga milliy ruh bag'ishlaydi.

Mavsumiy bayramlar - Navro'z yoki hosil bayramlari teatrlashtirilgan ko'rinishlarda qo'shiqlar, raqslar, xalq o'yinlari orqali jonlantiriladi. Xalqona kulgili

epizodlar – masalan, kuyov-navkarlarning quvnoq suhbatlari yoki to'yda aytiladigan kulgili latifalar xalqona hazil-mutoyiba ruhini sahnaga olib chiqadi. [3]

Teatrlashtirilgan tomoshalarda qoraqalpoq xalqining musiqiy merosi alohida o'rin tutadi. "Qizil o'yin", "Chalpaq" kabi raqslar, an'anaviy dostonlardan parchalar, qo'shiqlar milliy urf-odatlarini badiiy jihatdan boyitadi. Ayniqsa, ayollar raqslari nafisligi, erkaklar raqslari esa kuch-qudrat ifodasi sifatida teatr tomoshalariga uyg'unlik bag'ishlaydi. Qoraqalpoq teatr san'ati tarixida ko'plab spektakllar urf-odatlar asosida yaratilgan. Masalan, "Qiz uzatish" mavzusidagi ko'rinishlarda ota-onaning pand-nasihatlari, sovchilar kelishi, kelinning roziligi va kuyovning sinovlardan o'tishi badiiy tarzda sahnalashtiriladi. Bunday dramatik ko'rinishlarda nafaqat an'ana, balki insoniy fazilatlar – sadoqat, mehr, hurmat kabi qadriyatlar ham namoyon bo'ladi.

Urf-odatlarining teatrlashtirilgan tomoshalarda aks etishi yosh avlodning milliy o'zligini anglashiga yordam beradi. Tomoshabin o'z xalqning qadriyatlarini yanada chuqurroq anglab, ularga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Bundan tashqari, xalq sa'natiga bo'lgan qiziqish ortadi, an'analarni asrab-avaylashga bo'lgan mas'uliyat kuchayadi. [4]

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalqning urf-odatlarini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ma'naviy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Har bir sahnalashtirilgan urf-odat tomoshabinni o'z tarixiga, milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashga undaydi. Shu tariqa teatr sa'nati qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev T. Qoraqalpoq xalqning urf-odatlari va marosimlari. – Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2018. – 256 b.
2. Berdimurotov E. Qoraqalpoq folklori va teatr sa'nati. – Toshkent: Fan, 2015. – 198 b.
3. Xudoyberganova G. O'zbek va qoraqalpoq marosim folklori qiyosiy tahlilda. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 144 b
4. Qoraqalpoq xalq ijodi // O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 6-jild
5. Krimov A. Milliy urf-odat va a'nanalar teatr sahnasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 212 b.